

## HALOLLIK – TINCHLIK VA XOTIRJAMLIK ASOSI

*Ochilova Nigora Ne'matovna*

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani bosh otinoyisi*

*Adizova Kupiya Ramazanovna*

*Buxoro viloyat shofirkon tuman Sultonobod M.F.Y. Otinoyisi*

**Annotatsiya:** Halollik odamlar orasidagi ijobiy munosabat asosidir. Halol luqma va mehnat bilan topilgan mol-mulk inson qalbida xotirjamlik, sokinlik uygʻotadi va oʻzgalarga nisbatan xolis, ezgu niyat bilan munosabatda boʻlishga olib keladi.

**Kalit soʻzi:** Inson, halol, Mehnat, hayvon.

Inson halol mehnat qilib, ishlab chiqarish rivojlanishiga yordam beradi va xalqning farovon, baxtli yashashiga koʻmaklashadi. Harom luqma esa salbiy quvvatlar manbai boʻlib, jamiyatda oʻzaro ishonchsizlikka, nizolarga sabab boʻladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida “halollik vaksina”si bilan emlash orqali jamiyatimizda halol turmush tarzini barqaror shakllantirish masalasini koʻtarib, buni ziyolilar oldiga vazifa qilib qoʻydi. Buning uchun “halol” va “harom” tushunchalarini toʻgʻri anglashda odamlarga yordam berish lozim. Bolalarga halolni bilish va unga amal qilishni juda erta oʻrgatish kerak boʻladi. Bu masalada naqshbandiya asoschisi Bahouddin Naqshband (1318-1389)ning hayot yoʻlini, purmaʼno hikmatli soʻzlarini oʻrganish va targʻib etishning ahamiyati katta.

“Halol” arab tilidan olingan soʻz boʻlib ruxsat etilgan, yoʻl qoʻyilgan, qonuniy, asosli, vijdonga muvofiq maʼnolarini anglatadi [1:641]. Hadisi sharifda: “Halol ochiq-oydindir”, deyilgan. Halol deganda, halolligi ochiq-oydin koʻrinib turgan suv, sut, meva, meva sharbatlari, non, poliz ekinlari, basmala aytib soʻyilgan hayvonlarning goʻshtidan pishirilgan taomlar, ruxsat berilgan kiyimlar va nikohga olingan shaxslar tushuniladi. Mehnat bilan topilgan boylik, ikki tomonning roziligida amalga oshirilgan tijorat tufayli qoʻlga kiritilgan mulk va hadya ham halol boʻladi. Har bir odam uchun halol narsani talab qilish va shunday molu mulk topish farzdir. Barcha narsani halol yoʻl bilan topib foydalanish kerak. Masalan, non halol boʻlsa-da, harom yoʻl bilan topilsa, pok hisoblanmaydi.

Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali qalamiga mansub “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” kitobida Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attorning bunday naqli keltirilgan: “Hazrati Eshonning qadamlari sunnatga tobe boʻlishda mustahkam edi. Halolga intilish va shubhali narsalardan qochishni, ayniqsa, halol luqmani taʼkidlab gapirardi. Suhbatida doimo quyidagi hadis

o‘tar edi: “Ibodot – o‘n qism, to‘qqiz qismi halolni qidirish, bir qismi boshqa ibodatlardir” [2:83].

Bahouddin Naqshband inson farz amallarini bajarib, halollik bilan non topish uchun mehnat qilmay, boshqalarning topganiga sherik bo‘lib, ularga yuk bo‘lsa, unday insonning amallarini halol hisoblamagan. Halol inson, uning fikricha, o‘zi, oilasi, qaramog‘idagi qarindosh-urug‘ini halol mehnat bilan boqishi va muhtojlarga muruvvat qo‘lini cho‘zib, og‘irini yengil qilishga intilishi lozim. U ibodat uchun oila ahlini, otanasini o‘ylamagan insonni qoralagan.

Naqshbandiya ta’limotining asosiy g‘oyasi – “Dil ba Yoru dast ba kor”. U insonni mukammal harakatga undaydi. G‘oya asosida inson doimo halol mehnat qilishi, ya’ni barcha imkoniyatlardan ezgulik yo‘lida foydalanishi lozimligi yotadi. “Dast ba kor”lik shunday harakatni taqozo etadiki, u xolis, Alloh rizosi uchun, rozilik va mamnuniyat bilan qilingan bo‘lsin. Bunday mehnat “Dil ba Yor”lik natijasida vujudga keladi. Bu tariqat ahli halol mehnat qilib, oila, mahalla va el-yurt uchun foyda keltirgan, xalq farovon yashashi uchun imkoniyati darajasida harakat qilgan. Har bir inson “Dil ba Yoru dast ba kor” g‘oyasining mohiyatini anglasa va xalq orasida targ‘ib etsa, O‘zbekistonimizda moddiy va ma’naviy yuksalish bo‘lishiga yordam bergan bo‘lar edi.

Alouddin Attorning asaridan ma’lumki, Bahouddin Naqshband har yili arpa va mosh ekkan va o‘zi ishlov bergan. Ho‘kizlari bo‘lgan va ularga ham o‘zi qaragan. Taomi o‘zining ziroatidan hosil bo‘lgan. Suhbatiga kelgan ulamo va akobirlar taomini tabarruk deb yegan.

Bahouddinga kasbi uchun Naqshband degan sharaflı nom berilgan. Manbalarda yozilishicha, u bunday degan ekan: “Otam ikkimiz kimxobboflik kasbi bilan mashg‘ul edik” [2:35]. Demak, Bahouddin Naqshband otasi bilan birga o‘sha davrda Buxoroda tayyorlanadigan va chet ellarda mashhur eng sara mato – kimxobga naqsh bog‘lash hunari bilan mashg‘ul bo‘lgan va rizqini halol topgan. Shu kasbi tufayli va halol mehnati natijasida eng go‘zal naqsh barcha mavjudotlarning zohirida Allohning tajalliysini ko‘rgan va Allohni qalbdan naqshlashni o‘rganib, boshqalarga ham o‘rgatib, Shoh Naqshband nomi bilan mashhur bo‘lgan. Jahonshumul naqshbandiylik tariqati ham Bahouddinning shu nomidan olingan.

Bahouddin Naqshband g‘aribona yashar edi. Uyida xizmatkor bo‘lmagan. “Nega yollamaysiz?”, deb so‘ralganida: “Qullik xo‘jayinlik bilan mos kelmaydi!”, deb javob bergan. Manbalarda bu tabarruk inson aytgan quyidagi ikki baytni ko‘ramiz:

Na maro mafrashu na mafrashkash,  
Na g‘ulomoni turku tirkashkash.  
Hama shab chun sagoni kahdoni,  
Sar ba dum ovaram ba jismi xush. [2:85]  
(Menda na gilam boru na gilamni tozalovchi,

Na turk g'ulomiyu na suyanadigan kishi.

Boshini dumiga qo'ygan itlar kabi

Tun bo'yi butun jismim xush.)

Bu misralardan ko'rinadiki, Bahouddin, birinchidan, mol-mulk jamlashga mehr qo'ymagan. Faqat ehtiyoji uchun kerakli narsalarni saqlagan va shularga qanoat qilgan. Shuning uchun ham xizmatkorga muhtoj bo'lmagan. Haqiqiy bandalik maqomida bo'lib, ya'ni Allohgagina bo'ysunib, Allohning boshqa yaratganlariga muhabbat bilan qarab, Allohga tavakkal qilib, kunlarni ibodat bilan o'tkazgan. Uning "Birorta insonni qul qilish, xizmatkor qilish mumkin emas", degan g'oyasi insonparvarlik ruhida bo'lib, inson qadrini ulug'laydi. Har bir inson bunga amal qilishi, ya'ni mol-mulkka muhabbat qo'ymasligi va boshqalarni ham halol mehnatga qanoat qilib yashashga undashi jamiyatning ma'naviy yuksalishiga olib keladi.

Xalq farovonligida halollikning o'rni katta ekanini targ'ib etishda Bahouddin Naqshbandning hayotidan misollar keltirish kerak. Bahouddin Naqshband halollikka alohida e'tibor bergan. Vujudning barcha imkoniyatlaridan ezgulik, halollik yo'lida foydalanish uchun unda halolu pok va ijobiy quvvatlar jamlanishi lozimligini his qilgan va ko'ra olgan.

Bahouddin Naqshbandning ta'limoti tadqiq etilganda, insonning holati botiniy quvvatlarning sifatiga bog'liq ekani ko'rinadi. Inson o'z mehnati bilan halol topgan narsasini shukronalik bilan iste'mol qilganida, ichidagi quvvatda sifat yaxshilanib, u ijobiy tomonga o'zgaradi. Yaxshi sifatlar ta'sirida ijobiy niyat, ijobiy fikr va hissiyotlar paydo bo'ladi. Bu quvvat insonning ijobiy amallarga g'ayrat va ishtiyoqini oshiradi. G'azab, nafrat, ishyoqmaslik, g'aflat bilan pishirilgan narsalar esa inson botinida o'ziga uyg'un salbiy holatlarni hosil qilib, salbiy o'y-xayollarni vujudga keltiradi. Ular oqibatida ishtiyoqsizlik va g'ayratsizlik paydo bo'ladi. Ayniqsa g'aflat holati insonni tubanlik va tanazzulga yetaklaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom. Ensiklopediya: A – H / Shayx Abdulaziz Mansur tahriri I-80 ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so'z boshi, izoh va lug'at muallifi Mahmud Hasaniy. –T.: O'zbekiston NMIU, 2019.